

**NAMANGAN MADRASALARI TARIXIDAN LAVHALAR****Usmonova Feruza Kosimjon qizi***Namangan yuridik texnikum  
Umumta'lim fanlar kafedra mudiri*

Qo'qon xonligining Namangan viloyati qadimdan madaniyat, ilm-ma'rifat rivojlangan o'lkalardan biri bo'lgan. Bunga qisman Namanganning tog'li xududidagi Chodak qishlog'iga o'qimishli, ilmli, ziyoli xo'jalarni ko'chib kelib joylashib qolganligi ta'sir ko'rsatgan. Ularning Chodakka qachon, qaysi joydan ko'chib kelganligi to'g'risida bizda hozircha aniq ma'lumotlar yo'q. Ana shunday Chodak xo'jalaridan biri Baka Oxund bo'lgan. U o'zining qishlog'idan Madrasa qurdirgan va shu bilan uning nomi tarixga muhrlanib qolgan. Baka Oxund nomidan, unvonidan u o'qimishli, domullo kishi, shu bilan birga o'z nomidan Madrasa qurdirib, unga mulk ehson qilganligini hisobga olsak u tadbirkor, zamonasining katta mulkka, boylikka ega bo'lgan odami bo'lganligidan dalolat beradi. Uni islom diniga e'tiqodi baland bo'lgan. U Qur'oni Karimda Alloh tomonidan berilgan noz-ne'matlarni ehson qilganlarga Alloh katta kata marhamatlar va'da qilganligini yaxshi bilgan. Baka Oxund Chodakda 1202-yili Madrasa qurdirib, unga vaqf mulki ta'sis etgan<sup>66</sup>.

1907-yilda tuzilgan Namangan uyezdidagi vaqf tashkilotlari haqidagi axborotnomada 1202-yil tashkil etilgan Baka Oxund madrasasi ro'yxatga olindi. Ayrim xujjatda keltirilgan ma'lumotga qaraganda xujjat tayyorlangan vaqtda, ya'ni 1907-yilda madrasada 87 tanob ekin yeri bo'lgan va bir yilda 170 rubl 50 kopeek daromad qilgan<sup>67</sup>. U vaqf yerlarini kambag'al, yerga muhtoj dehqonlarga ijaraga, odatda, yetishtirilgan hosilning 5/1 hisobidan berib, vaqf daromadini mudarris, talabalarga bo'lib bergan, madrasada o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilgan. Farg'ona vodiysida shaxar va qishloqlarida XIII asrdan keyin ham Madrasalar vujudga kelishi davom etgan.

Namanganda Abdullaxon II (1557-1598 y.) davrida yangi Madrasa, qorixona va maktablar qurilgan. Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida yozilishicha, Namangan Abdullaxon II zamonida ancha obod bo'lgan. Ibrat "Farg'ona tarixi" asarida "Buxoro xonlaridan Abdullaxon bu Farg'ona taraflariga kelib, har yerga goh sardobalar kavlab, goh sakkoyi mo'mininga choxdarni tepasiga gumbazlar qilib ko'p xalqqa naflik ishlarini qilgan xon ekan. Ul kishi bul Namanganni yeriga kelib, alxolda sardoba degan Madrasa bordur, bir chust va bir aminlik mahalladur, ul yerga tushub darxol sardoba kavlatib, necha kunlar turub Namanganni obod qilgan"<sup>68</sup>, deb hikoya qiladi. Ibratning Namanganda Abdullaxon II zamonida madrasa bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotining haqiqiy ekanligini tasdiqlovchi XVI-XVIII asrlarga oid 13ta maktab, 7ta madrasa va 2ta

<sup>66</sup> АЛИМОВ И. Ко'кон хонлиги мадраса ва мактаблари тарихи – Т.: Fan, 2017, -B. 210

<sup>67</sup> АЛИМОВ И. Ко'кон хонлиги мадраса ва мактаблари тарихи – Т.: Fan, 2017, -B. 212

<sup>68</sup> Is'hoqxon Ibrat. Farg'ona tarixi. –Т.: "Kamalak", 1991. 325-bet.



qorixona bo'lganligi haqida O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida yangi ma'lumotlar topilgan.

XVI-XVIII asrlarda Namanganda Chodak qishlog'ida 1578-yilda 1ta Madrasa va Koson qishlog'ida Xapalaxo'ja maxallasida tashkil qilingan 1ta qorixona bo'lgan. Bundan tashqari Namangan shaxrida 1683-yilda qurilgan Do'st og'alik nomli madrasa, 1788-yilda Namangan shaxrining Chuqurko'cha qismida bunyod etilgan Azizxon Eshon madrasasi, To'raqo'rg'on qishlog'ida 1798-yilda qurilgan Xonxo'ja eshon madrasasi, Namangan shaxrining Labbaytog'a qismida 1727-yilda bunyod etilgan Abdullaxo'ja eshon madrasasi, Namangan shaxrining yana o'sha Chuqurko'cha qismida 1788-yilda faoliyat ko'rsata boshlagan Ismoilxo'ja eshon madrasasi kabi bir qator madrasalarda tolibi ilm axli o'z ta'lim olganlar.

Endi Qo'qon xonligi Namangan viloyatida XIX asrda, aniqrog'i, 1801-1876-yillarda Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar bunyod etilgan madrasalar faoliyati to'g'risida to'xtalamiz. 1887-yilda Namangan uyezddida Turkiston general-gubernatorligi Namangan uyezdi rahbarlari tomonidan tomonidan ro'yxatga olingan o'quv yurtlari ichida 42ta Madrasa ro'yxatga olingan<sup>69</sup>. Tashkil etilgan yillariga qaraganda barcha madrasalardan ko'pchiligi 1801-1876-yillarda barpo etilgan. Ro'yxatdagi madrasalardan 7 tasi XVI-XVIII asrlarda tashkil etilgan, 31 tasi 1801-1876-yillada barpo qilingan, 2ta madrasa Qo'qon xonligi tugatilganidan keyin qurilgan, 2 ta madrasani bunyod etilgan yili aniq emas.

1801-1876-yillarda Namangan uyezdidagi Namangan shaxrining Sardoba daxasida 1868-yilda bunyod etilgan Mulla Imom G'ozil madrasasi, Namangan shaxrining Sardoba daxasida 1870-yilda tashkil etilgan Komilboy Abdiyev nomli madrasa, Shoxand qishlog'ida 1811-yilda barpo etilgan Qalandar devona madrasasi, Koson qishlog'ida 1864-yilda tashkil qilingan Ismoilxo'ja Eshon nomli madrasa, Koson qishlog'ida 1838-yilda barpo qilingan Toshxo'ja eshon madrasasi, Chumbosh qishlog'idagi 1858-yilda barpo etilgan madrasa, Namangan shaxrining Chuqurko'cha qismida 1808-yilda barpo etilgan Saidqulbek madrasasi, Namangan shaxrining yana o'sha Chuqurko'cha qismida 1850-yilda qurilgan Bahodir Eshon madrasasi, Namangan shaxrining Labbaytog'a qismida 1855-yilda bunyod etilgan Mehmon Xo'ja Eshon madrasasi, Namangan shaxrining Labbaytog'a qismida 1812-yilda bunyod etilgan Xazrat Mavlton madrasasi<sup>70</sup> kabi madrasalar o'z faoliyatini olib borgan.

Maxmud Dasturxonchi<sup>71</sup> 1836-yilda Chust shaxrida nisbatan yirik Madrasa bunyod etgan. V.P.Nalivkinning 1891-1892-o'quv yilidagi "Farg'ona viloyati musulmon madrasalari holati to'g'risidagi ma'lumotlar" nomli hujjattida ko'rsatilishicha, bu Madrasa 32 xujra va 2 darsxonadan iborat bo'lgan. Uning tarkibida masjid, ayvon, xonaqoh, oshxona bo'lgan. Madrasa Chust shaxridagi Xazrat Mavlton Lutfillon mozori yonida joylashgan edi. Mahmud dasturxonchi o'zi barpo etgan madrasaga Xazrat

<sup>69</sup> АЛИМОВ И. Ко'кон хонлиги мадраса ва мактаблари тарихи – Т.: Fan, 2017, -В. 227

<sup>70</sup> АЛИМОВ И. Ко'кон хонлиги мадраса ва мактаблари тарихи – Т.: Fan, 2017, -В. 230

<sup>71</sup> Махмуд дастурхончи (тўлиқ исми Махмуд Бобо дастурхончи Ҳасанжон ўғли) Қўқон хони Муҳаммад Алихоннинг вазири ва Лашкар бекларбегининг яқин дўсти бўлган.





Mavlon nomini bergan. Bu mashhur mozorni Namangan viloyatining Varzik tumani Sullam qishlog'ida va Qo'qon viloyatining Buvayda tumani Kartan qishlog'ida 1549-yili vaqf qilingan yerlari bo'lgan<sup>72</sup>.

Qo'qon xonligining 1876-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan ishg'ol etilgandan so'ng Farg'ona viloyatida yangi tuzum hukm surdi. Sovet davrida chop etilgan "O'zbekiston sovet ensiklopediyasi"da va mustaqillik yillarida chop etilgan "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"da Namanganda 1892-yilda bunyod etilgan G'oyib Nazir madrasasi va 1910-1912-yillarda barpo etilgan Mulla Qirg'iz madrasasi to'g'risida ma'lumot bergan, xolos.

Qo'qon xonligidagi Namangan viloyatining ko'p sonli madrasalari davlat tashkilotlari uchun ko'plab mutaxassislar yetishtirib bergan. Madrasalarni bitirganlar xonlik idoralarida mirza, ish yurituvchi, qozixonada qozi, muftiy, a'lam<sup>73</sup>, masjidlarda imom, hatib lavozimlarida xizmat qilgan. Madrasani tugatgan mullalar Namangan viloyatining madaniyatini rivojlantirish ishiga muhim hissa qo'shganlar. Ular orasidan yozuvchilar, shoirlar, olimlar yetishib chiqqan. Viloyatdagi madrasalarni tamomlab, Buxoro, Qo'qondagi mashhur madrasalarda malakasini oshirib, diniy ilmlar asosini chuqur egallagan mullalar madrasalarda mudarris, mutavalli<sup>74</sup> lavozimlarida ishlagan. Ko'pchilik madrasalarni bitirganlar Namangan maktablarida domla, korxonalarda ish boshqaruvchi bo'lib yoshlarga ta'lim-tarbiya berishgan. Madrasani tugatib, keng bilimli bo'lgan ziyolilar Namangan viloyatini rivojlantirishga, ayniqsa, uning madaniyati gullab-yashnashiga xizmat qilganlar.

<sup>72</sup> АЛИМОВ И. Ко'кон хонлиги мадраса ва мактаблари тарихи – Т.: Fan, 2017, -В. 234

<sup>73</sup> A'lam - Islom dini qonunshunosi, rukklarini yaxshi biluvchi

<sup>74</sup> Mutavalli - islom tarixida vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor